

Xolboyeva Dilafruz, NamDChTI magistranti

Annotatsiya: Mazkur ishda Germaniya matn tilshunosligi va matn turlari ularning tavsifi va bu boradagi nemis olimlari qarashlari hususida fikr yuritiladi.

Kalit soʻzlar: Tilshunoslik, matn, tilshunoslik maktablari, tarihiy rivojlanish.

Аннотация: В работе рассматриваются лингвистика немецкого текста и типы текстов, их описание и взгляды немецких ученых по этому поводу.

Ключевые слова: Языкознание, текст, лингвистические школы, историческое развитие.

Abstract: The paper examines the linguistics of German text and types of texts, their description and the views of German scientists on this matter.

Key words: Linguistics, text, linguistic schools, historical development.

Kundalik hayotda biz har jabhada va har doim matnlarga duch kelamiz. Masalan, kitob yoki gazeta o'qiyotganda, shuningdek, qisqa xabarlar yoki umuman hat yoki SMS yozish davomida ham matnlarga duch kelamiz. Matnlar doimiydir o'tmishdagi yoki kelajakdagi voqealarni yozib olish va ularni boshqalarga etkazish vositasi hisoblanadi. Shuning uchun ham matn tilshunosligi va matnni o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

Matn tilshunosligi - Bu nima? Matn tilshunosligi yangi tilshunoslik sohalaridan biridir. Tadqiqot markazida matn-lingvistik tadqiqotlar bo'lgan bu soha nemis tili va uning tilshunoslik jihatidan olib boriladigan tadqiqod ishlarida ahamiyatli sanaladi. Matnshunoslik 1960-yillarning o'rtalariga qadar rivojlanmagan. Bu davrga kelib lingvistik matn tahlili haqida gapiriladi. Matnning grammatik va tematik tuzilishi borasida munozaralar yuzaga chiqa boshlaydi. Bundan tashqari, kommunikativ muayyan matnlarning funktsiyalari namoyish etila boshlanadi. (11, 9). Teun van Deyk matn lingvistikasini "har qanday matnni asosiy

tadqiqot obyekti sifatida qabul qiluvchi lingvistik soha deb biladi." [4, 15]. Adamzikning fikriga ko'ra, "Inson bilan muloqot qilishning eng qadimgi ko'rinishlari (garchi ular zamonaviy matnlar ko'rinishida bo'lmasa ham) ham matnlardir." [1, 1].

"Matn lingvistikasi" atamasi birinchi marta 1967 yilda nemis tilshunosi Xarald Vaynrix tomonidan kiritilgan. U barcha lingvistik tadqiqotlar matndan kelib chiqadi degan fikrni bildiradi. Matn tilshunosligi yangi lingvistik kichik fan sifatida yetakchilik qilgan davrda nemis tilshunosi Piter Xartman „Bugungi kunda umumiy tilshunoslik tilshunoslikka oid xarakterli vaziyat va pozitsiyani ko'rsatadi, kontsepsiya va matnga yo'naltirilgan tilshunoslik bo'yicha tadqiqot olib borish zaruriy va mazmunli oqibatni ifodalaydi va undan tashqari asl nusxada tilshunoslik uchun qo'shilgan hissa keyingi ishlar istiqboli va tilshunoslikning qiymatini oshishini belgilaydi[!]" –degan fikrni yuritadi [5, 93].

So'nggi davrda matnlarni o'rganish tilshunoslikning matn tilshunosligi deb nomlanuvchi (ayniqsa, Evropada) bo'limining belgilovchi xususiyatiga aylandi va "matn" bu yerda markaziy nazariy maqomga ega hisoblanadi. Matnlar belgilanishi mumkin bo'lgan til birliklari sifatida qaraladi. Muloqot funktsiyasi, yaxlitlik, uyg'unlik va informativlik kabi printsiplar bilan tavsiflanadi, ulardan matnlilik yoki teksturani tashkil etadigan narsaning rasmiy ta'rifini ta'minlash uchun foydalanish mumkin. Belgilar, yangiliklar xabarlar, she'rlar, suhbatlar va hokazolar matnning turlari hisoblanadi. Ba'zi tilshunoslar "matn"ni dinamik ifodalash va talqin qilish jarayoni sifatida qaraladigan "muloqot" atamasi deb qaraydilar, ularning vazifasi psixolingvistik va ijtimoiy harakat yordamida lingvistik usullarni o'rganish deb biladilar [47].

Matnshunoslikning tarixiy rivojlanishi matn tadqiqotidagi turli yondashuvlar uchun muhim asoslarni yetkazib berdi. Bu yerda bir necha muhim qarashlar qisqacha tasvirlab beriladi. Kengqamrovli ifodalashni bu doirada amalga oshirib bo'lmaydi.

O'tgan asrning 60-yillarining o'rtalariga kelib tilshunoslikda matnshunoslik yangi soha sifatida paydo bo'ladi. 70-yillarga kelib to'laligicha shakllanadi va shu

paytdan beri tilshunoslikda tadqiqot va o'rgatishda markaziy o'rinni egallab kelmoqda. Boshlanishida gapga muloqotdor grammatik tushunchalar bilan cheklangan bo'lsa, tilshunoslikdagi pragmatik burilish deb ataluvchi burilishdan keyin sohaning shug'ullanadigan mavzulari va masalalari kengaydi. Tadqiqot predmeti hisoblangan „matn“ bilan endi nafaqat grammatik, balki eng avvalo situativ, muloqot-vazifaviyligi, mavzuviiy va kognitiv sabablariga ko'ra munosabatda qaraladigan bo'ldi.

Matnshunoslik tilshunoslikning eng yangi sohalaridan biri hisoblanadi. Qadimgi notqlik bugungi matnshunoslikning ildizi sifatida qaraladi. Notqlikda ma'lum matnlarning tartibi uchun qoidalar, fikrlar va nutq amaliyoti rivojlantirilgan bo'ladi. Bu nutqga doir qoidalar yangi davrda ham maktab notqligida o'rgatildi va bu an'ana bugungi zamon maktablarida insho yozishni o'rgatishda, hamda boshqa matn tuzish jaroyonlarida o'z ta'sirini saqlab qolgan. Matnlarning lisoniy tuzilishiga, eski grammatika qamrab olmagan matn tuzilish qoidalariga notqlikdan kelib chiqqan uslubshunoslik e'tibor qaratdi. Uslubshunoslik alohida bo'lgan matnlarning tahliliga ko'proq e'tibor qaratadi. Matnshunoslikning keyingi bosqichi sifatida „vazifaviy gap istiqbollari“ tushunchasini ko'rish mumkin. Bu tushuncha praga tilshunoslik maktabi vakillari tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, jumladan tilshunos olim Vilem Mathesius tomonidan 1939 yilda shu tushuncha asosida maqola yozadi va bu tushuncha 1945 yildan keyin yanada takomillashtiriladi. 60-yillarda matnning (gapning emas) tuzilish qoidalari haqida urinishlar bo'ladi, matn grammatikasi haqida so'z boradi. Praga tilshunoslar maktabining davomchilaridan biri bo'lgan František Daneš 1974 yilda „gap“ tushunchasini „matn“ tushunchasi orqali kengaytiradi. U o'zining „Tema-Rema qurilishi“ nazariyasiga asos soladi. 1970 yillardagi pragmatikaning rivojlanishi va gap grammatikasidagi tanqidiy qarashlar matnshunoslikni junbushga keltiradi. 70-yillarning boshlarida lisoniy pragmatikaning asosidan kelib chiqib rivojlangan „muloqotga qaratilgan yangi matnshunoslik yo'nalishi“ vujudga keladi. Pragmatika, shu jumladan amaliy tilshunoslik ham ma'lum muloqot jamiyatining muloqotdoshlari o'rtasidagi ijtimoiy-lisoniy tushunish shartlarini tushuntirishga harakat qiladi. Amaliy istiqbol

ostida matn nafaqat grammatik bog'langan gapning ketma-ketligi, balki lisoniy harakat sifatida namoyon bo'ladi. Bu harakat bilan so'zlovchi yoki yozuvchi eshituvchi yoki o'quvchi uchun ma'lum bir muloqotga oid munosabatni ishlab chiqishga urunadi. Muloqotga yo'naltirilgan matnshunoslik matnlarning muloqotga oid vazifalarini tadqiq qiladi [2, 14].

Tema-rema munosabatlarini jumladan yuqori pog'onada turadigan tuzilmalar tarkibidan izlash harakati o'z-o'zidan yuzaga kelgani yo'q. Gap mavhum birlik, qolip sifatida qaralganda, uning qurilishi aktual yoki boshqacha aytganda, biror bir mazmuniy bo'linishga ega bo'lishini tasavvur qilish qiyin masala. Mazmuniy bo'linish hodisasi va tema-rema munosabatlari faqatgina nutqiy voqelangan kommunikativ tuzilmalargagina xosdir. Shu sababli bu hodisa va munosabatlarni matn grammatikasi nuqtai nazaridan o'rganish ma'quldir.

Yakob Grimm talqinicha, filologiya tarkibiga, grammatika va lug'at tahlilidan tashqari, matnni bilish ham kiradi.

Strukturalizm deb ataluvchi til oqimida uzoq vaqtgacha gap shajaraviy yuqori birlik sanalgan va matn chetda qolgan bo'lsada, zamonaviy matnshunoslik asoslarining kelib chiqishi Praga strukturalistik maktabiga borib taqaladi. Tilning vazifalari masalasi ko'tarilishi orqali an'anaviy statistik tizimli tasvirlash ko'p ham diqqat markazda bo'lmay qoladi. Tilning jarayon va vazifaviy miqyosidan kelib chiqib V. Mathesius gapning kommunikativ shakllanishini tasvirleydigan va keyinchalik F. Danesning mavzuviy yuksalishlar shakli asariga ko'chirilgan gap perspektivining vazifalari tushunchasini rivojlantiradi. Yangi tadqiqod predmeti bo'lgan „matn“ boshida ko'proq shakliy-tizimli ko'rinishda sharhlanib yurgan bir davrda, 70- yillardan tilshunoslikda paydo bo'la boshlagan, pragmatik burilish deb ataluvchi yangi funktsional yo'nalish kuchayib ketdi va shuning bilan birgalikda matn tilshunosligidagi tadqiqodlarda uzul-kesil o'zgarishga olib keldi. Matn endi til tizimining shajaraviy pog'onasi sifatida qaralmasdan, balki „Alohida holda doimo ma'lum bo'lgan, aniq haqqoniy-daliliy matn yasallishining ko'rinishi [...] mustaqil til belgisi sifatida kuzatiladigan bo'ldi“ [8, 11].

Matnshunoslik rivojlanishi „matnga“ bo'lgan qiziqishni, u ustidagi ilmiy

izlanishlar sonini oshishga xizmat qildi.

1960-yillardan boshlab matn tilshunosligi nafaqat nisbatan mustaqil kichik fanga aylanib qolmay, balki fanlararo tadqiqot sohasiga aylandi, bu sohada harakat-nazariy va kognitiv-ilmiy tadqiqot natijalari birlashtirilib nafaqat tilshunoslik to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lindi, balki matn ishlab chiqarish va qabul qiluvchi matnni qayta ishlash jarayonlari haqida ham tadqiqotlar olib borildi. Matn lingvistik tadqiqot natijalaridan boshqa fanlarda (masalan, til didaktikasi, texnik til lingvistikasi) foydalanish imkoniyatlari sezilarli darajada oshdi. Nemis matnshunosi Heinemann matn lingvistikasining vazifasi sifatida aniq matnlar asos bo'ladigan matn tuzilishining umumiy shartlari va qoidalarini tizimli ravishda tasvirlab berish va ularning matnni qabul qilish uchun ahamiyatini tushuntirishda deb biladi[7, 522-546]. Lingvistik adabiyotlarda aks ettirilgan matnning turli xil tushunchalarini tanqid qilinadi. Matn atamasi quyidagicha ta'riflanadi;

1. Grammatik birliklar sifatida (xarakterga yo'naltirilgan yondashuvlar)
2. Semantik-mazmunga asoslangan birliklar sifatida (ketma-ketlik va mazmun modellari)
3. Kommunikativ funktsiya (vaziyat va funktsional modellar) bilan belgilanadigan vaziyat birliklari yoki birliklar sifatida
4. Ko'p o'lchovli birliklar sifatida (ko'p darajali modellar)

Matn lingvistikasining rivojlanishida tadqiqotning diqqat markazida gaplar grammatikasidan jumla chegaralarini kesib o'tuvchi grammatik hodisalarni tekshirishga, global matn tuzilmalarini tahlil qilishga o'tdi; bilimlarni qayta ishlashning matn-pragmatik jihatlari va muammolari muhim ahamiyatga ega. Matnlilik xususiyatlarini, matn tuzilmalarini va matnlarda mavzularning rivojlanishini tavsiflash va tushuntirish uchun turli xil nazariy modellar ishlab chiqilgan va matn tahlilining turli usullari ishlab chiqiladi[44,28]. Biroq, quyida men matn tilshunosligining rivojlanishini qaysi qiziqishlar tadqiqot markazida bo'lgan yoki bo'lganligiga qarab farqlashni istardim. Bunday tematik ustuvorliklar quyidagilardir:

- 1-fokus: matn uyg'unligi roli

2-fokus: matn turi muammosi

3-fokus: matn pragmatikasi [8]

4-fokus: matnni qabul qilish va ishlab chiqarish[18]

5-fokus: madaniy va madaniyatlararo nutqlar va matn turlari[1]

6-fokus: Yangi media bilan ishlash (matn-tasvir munosabatlari, shaxsiy kompyuterlardagi matnlar, gipermatn va h.k., “Matn turi muammosi” va “madaniy nutqlarga matnlarni kiritish” bundan mustasno, bu asosiy nuqtalar batafsil muhokama qilinmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adamzik, Kirsten. Textlinguistik. Stauffenburg-Verlag. Tübingen. 2004.
2. Brinker/Antos/Heinemann/Sager. Textlinguistik. Eine Einführung. Stauffenburg-Verlag. Tübingen : 2000.
3. BRÜDER, G. Kinder- und Hausmärchen. Leipzig : 1978.
4. van Dijk, Teun. Some aspects oft ext grammars. AStudy in theoretical poetics and linguistics. The Hague. Mouton. 1972.
5. Hartmann, Peter. Sprachverstehen und Textinterpretation. Narr Verlag. Tübingen.1968.
6. Heinemann, Wolfgang. Grundlagen der Textlinguistik. Interaktion J Text J Diskurs. Tübingen: Niemeyer. 2000.
7. Isenberg, Horst. Der Begriff ,Text in der Sprachtheorie. ASG-Bericht 8. Berlin. 1970.
8. Harweg, Roland. Pronomina und Textkonstitution. Wilhelm Fink Verlag. München. 1968.